

VIRUSLAR ORQALI RIJLANADIGAN TURLI XIL KASALLIKLAR VA ULARNI OLDINI OLISH

Norboyev Azizbek Jamoliddin o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-bosqich talabasi .

Anotatsiya : Mazkur ilmiy tezisdaviruslar orqali rivojlanadigan turli xil kasalliklar , ularning etiologiyasi , patogenez , tarqalish yo'llari hamda oldini olish chora-tadbirlari yoritilgan . Virusli infeksiyalarning inson salomatligiga ta'siri va profilaktikaning ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan .

Kalit so'zlar : virus , virusli kasalliklar , infeksiya , epidemiologiya , immunitet , emlash , profilaktika , pandemiya .

Аннотация : В данной научной тезисе освещены различные заболевания , вызываемые вирусами , их этиология , патогенез , пути распространения , а также меры профилактики. Влияние вирусных инфекций на здоровье человека и значимость профилактических на основе научных источников .

Ключевые слова : вирус , вирусные заболевания , инфекция , эпидемиология , иммунитет , вакцинация , профилактика , пандемия .

Annotation: This scientific thesis highlightis various diseases caused by viruses, their etiology, pathogenesis, transmission routes, and preventive measures. The impact of viral infections on human health and the importance of preventive measures are analyzed based on scientific sources .

Keywords : virus , viral diseases , infection , epidemiology , immunity , vaccination , prevention , pandemic .

Virusli kasalliklar zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Aholi migratsiyasi, urbanizatsiyasi va sanitariya qoidalariga rioya qilmasligi virusli infeksiyalarning keng tarqalishiga olib kelmoqda . So'nggi yillarda virusli kasalliklarning ko'payishi ularni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda.

Viruslar haqida umumiy tushuncha :

Viruslar hujayrasiz , DNK yoki RNK saqllovchi infeksiyon agentlar bo'lib , faqat tirik hujayralarda ko'payadi va mustaqil metabolizmga ega emas .Viruslarning antibiotiklarga sezgir emasligi ularni bakterial infeksiyalardan farqlovchi muhim belgisi hisoblanadi . (2.14-16)

Nafas yo'llari orqali yuqadigan viruslar :

Gripp virusi , koronavirus ,qizamiq va qizilcha viruslari havo-tomchi yo‘l bilan yuqib, nafas yo‘llarining o‘tkir kasalliklarini keltirib chiqaradi . Ushbu viruslar pnevmoniya bronxit va nafas yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin .(4.28-30)

Ovqat hazm qilish tizimini zarorlovchi viruslar :

Rotavirus, norovirus va enteroviruslar ichak infeksiyalarining asosiy qo‘zg‘atuvchilari hisoblanadi . Ushbu virusli kasalliklar ayniqsa bolalarda suvsizlanish va intoksikatsiyaga sabab bo‘ladi (3.40-42)

Qon va jinsiy yo‘l bilan yuqadigan viruslar :

OIV, gepatit B va C viruslari parental va jinsiy yo‘l bilan yuqib , surunkali kasalliklarni keltirib chiqaradi . Gepatit viruslari jigar sirrozi va jigar yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin . (5.18-20)

Asab tizimini zarorlovchi viruslar :

Qutirish .polimiyelit va virusli ensefalit qo‘zg‘atuvchilari markaziy asab tizimini zararlab , falajlik va og‘ir nevrologik asoratlarni keltirib chiqaradi . (2.310-315)

Teri va shilliq qavatlarni zarorlovchi viruslar :

Gerpes simplex va Varicella-zoster viruslari teri va shilliq qavatlarda pufakchali toshmalar paydo qiladi. Inson papilloma virusi bachadon bo‘yni saratonining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi .(3.65-67)

Virusli kasalliklarning oldini olish :

Virusli kasalliklarning oldini olishda emlash eng samarali usul hisoblanadi .Shuningdek ,shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish , sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va epidemiologik nazorat muhim ahamiyatga ega hisoblanadi .(3.70-72)

Xulosa :

Viruslar orqali rivojlanadigan kasalliklar inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi . Ularni oldini olishda emlash , gigiyenik tadbirlar va aholining tibbiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi . (4.55)

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Murray P.R, Rosenthal K.S , Pfaller M.A . Medical Microbiology
2. Xudoyberganov A.X, Qodirov B.B . Mikrobiologiya va virusologiya - Toshkent
3. Abdullayeva S.A. Yuqumli kasalliklar .- Toshkent Abu Ali Ibn Sino nomidagi nashriyot
4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi . Yuqumli kasalliklar bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar
5. Ismoilov I.I Gepatitlar va ularning oldini olish - Toshkent .